

## O'zbek-xitoy piyozi bog'i 2021-yil mavsumining ochilishi

Joriy yil 3may kuni Toshkent Botanika bog'ida O'zbek-Xitoy piyozi bog'i Toshkent markazining 2021-yil mavsumi ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Xitoy Fanlar akademiyasi Kunming Botanika instituti ilmiy xodimi Z.Yusupov, Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori K.Sultonov, O'zR FA Botanika instituti direktori D. Dehqonov, akademik K.Sh.Tojibayev va Botanika instituti hamda Botanika bog'i ilmiy xodimlari ishtirok etishdi.





Eslatib o'tamiz, O'zR FA Botanika instituti huzuridagi Toshkent Botanika bog'ida O'zbek-Xitoy piyozlar bog'i Toshkent markazi (Global Allium Garden Tashkent center) 2018-yilda tashkil etilgan. Piyozlar bog'i O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti bosh ilmiy xodimi akademik K.Sh.Tojibayev va Xitoy Fanlar akademiyasi Kunmin botanika bog'i va Botanika instituti ilmiy xodimlarining tashabbusi bilan barpo qilingan. Dastlab yaratilgan piyozlar bog'ining umumiy maydoni 0,5 ga ni tashkil qilgan bo'lib, kolleksiyada nafaqat O'zbekiston florasining Piyozlar turkumiga mansub o'simliklar, balki floramizning geofit o'simliklari – lolalar, gulsafsarlar va shirachlar ham o'rinn olgan. O'zbek-Xitoy piyozlar bog'i har ikki davlat ilmiy hamkorligining yangi marralarga olib chiqishda dastlabki loyihalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston florasida piyozlarning 130 ortiq turlari mavjud bo'lib, ular orasida manzarali, dorivor, noyob va endem turlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda Piyozlar bog'ida Markaziy Osiyo, Xitoy, Eron, Kavkaz va O'rta Yer dengizi florasiga mansub 100 dan ortiq turlar parvarish qilinmoqda.